

SAMARQAND SHAHARSOZLIGI ME'MORIY YODGORLIKLARNING XIX-ASR OXIRI XX- ASR BOSHLARIDAGI HOLATI

Bobomurodova Mashhura Azimovna

*SamDAQU "Arxitektura yodgorliklari rekonstruksiyasi va restavratsiyasi" kafedrasida
o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqola Samarqand shahri me'moriy obidalarida qurilish materiallari sifatida ko'p joylarda pishiq g'ishtlar o'rniga paxsa va xom g'isht qo'llanilganligi haqida va ko'hna shaharning markaziy va shimoliy qismida ochilgan qazilmalar, shu jumladan, IX-XII asr jome masjidi, xarsang toshdan qoplangan ko'cha, ark, saroy, qurollar mahallasi singari arxeologik yodgorliklari yog'in-sochin ostida qolib ketish sabablari o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *me'moriy obidalar, yodgorliklar, ark, saroy, arxeologik topilmalar, qadimiy inshootlar, Shoxi Zinda, memoriy majmua.*

Samarqand shahri me'moriy obidalarida haqida gap ketganda shuni alohida ta'kidlash kerakki IX-asrgacha qurilish materiallari sifatida ko'p joylarda pishiq g'ishtlar o'rniga paxsa va xom g'isht qo'llanilgan. Shu tufayli V-VIII asrlarga oid samarqand shohiixshid Varxuman saroyi deb ham taxmin qilinadigan imoratning dunyoga mashhur bo'lgan devoriy suratlari qanchalik maftunkor bo'lmasin, uni saqlab qolgan bino devori qoldiqlari bilan namoyish qilinishining iloji bo'lmaydi. Shu sababli bu mujizakor devoriy suratlar afrosiyob muzeyiga ko'chirilgan. Xuddi shu so'zlar afrosiyobda qazib ochilgan va Somoniylar saroyi deb taxmin qilinadigan ganchxokka o'xshagan, adabiyotda shtuk deb ataladigan materialga o'yilgan imoratning izorasiga oid mashhur o'ymakorlik pannoga ham ta'luqlidir. Afrosiyobda XIX-gacha bu kabi yodgorliklarning bir qanchasi ko'milib ketgan, dastlab atrof-tevarak aholisi u yerdan topib olingan qimmatbaho taqinchoqlar Yevropaliklar orasida sotilgan. Natijada antikvariat sotiladigan maxsus bozor vujudga kelgan. Bu ishga qiziqishi ortgan rus xarbiylari mardikor yollab havaskorona arxeologik qazishmalar olib borishgan. Arxeologik qatlamlarga putur yetkazilgan. Juda ko'plab badiiy Arxeologik topilmalar shu tufayli g'ayriqonuniy tarzda shaxsiy kolleksiyalarga o'tib ketgan. Sho'rolar davrida esa Afrosiyob o'rtasidan yo'l o'tkazilib, natijada u ikkiga ajratib tashlandi. Uning katta qismini qabriston egallab oldi. Bir qismida qazib ochilgan arxeologik yodgorliklar, nurab yo'q bo'lib ketgan edi. Uning bir qismi Ko'n zavodi hududida edi.

Shoxi Zinda memorial va me'moriy majmuasiga ham munosabat yaxshi emas edi. Turli bahonalar bilan majmua tarkibidagi Tuman oqa, Ulug'bek qurdirgan va XVII-asrda qurilgan, jami 3 masjid yopib qo'yilgan edi, majmuaning kirish tomoni, uning oldidagi maydon va ariq qarovsiz holga kelib, yon-atrofni suv bosib zaxlab yotardi. Bu yerdagi me'moriy yodgorliklar xududi nurab yotgan Afrosiyob qalasi devorlari va yodgorliklarning qulab tushgan qismlari xisobidan chiqindi xamda tuproqqa komilib ketgan edi.

XX-asrda, shurolar davrida xam axvol yaxshilanmadi. Afrosiyob qal'asi ustidan avto magistral, qurilgan imoratlardan ham ayanchliroq ish bu – arxeologik qisimlarning buzilib ketganligidir. Ko'hna shaharning markaziy va shimoliy qismida ochilgan qazilmalar, shu jumladan, IX-XII asr jome masjidi, xarsang toshdan qoplangan ko'cha, ark, saroy, qurollar mahallasi singari arxeologik yodgorliklari yog'in-sochin ostida qolib ketdi va aytarli yemirilib bo'ldi. O'sha paytlarda bu arxeologik qazilmalarni saqlab qolishning qaltis yo'li qabul qilingan edi, sinov eksperimenti uchun zarur bo'lgan, eski paxsa devorlarni koroliferlar bilan quritish ishlari sinovdan o'tkazilgan edi, buning natijasida devorning sirti yupqa sopolga aylanib, devor strukturasi buzilishiga olib keldi. Bu ish samara berganligi tufayli o'sha qadimiy inshootlar devorlari bugungi kunda, yemirilib ketgan. Vaholangki, boshqa yodgorliklarda sinovdan o'tgan paxsa va xom g'ishtdan qurilgan arxeologik yodgorliklarning sirtini simon suvoq qilib, ustiga suv o'tkazmaydigan qoplama o'rnatish, bino yon atrofi va devor ostidan ta'sir qiladigan suvlarni qochirish usuli mavjud bo'lgan, cho'pon ota xarsang toshlari bilan qoplangan IX-XII asr ko'chalari topildiqlarining katta qismi ham to'g'ri konservatsiya qilinmaganligi tufayli buzilib ketdi.

Me'moriy yodgorliklarga munosabat ham unchalik yaxshi emas edi va buning birinchi sababi, XIX-asrning 70-yillaridan XX-asrning 20-yillarigacha Samarqand shahri Turkiston Genel-Gubernatorligiga qaraganligi tufayli masjid madrasalar qurilishi va tabiiyki, ularning ta'mir xarajatlari ko'zda tutilmagan edi. Bu xarajatlar zaiflashib qolgan mahalliy boshqaruv zimmasida edi, Shu tufayli qator imoratlar vayrona holga tushib, yo'q bo'lib ketdi. Masalan, Shoxi Zinda majmuasining old tomonida bo'lgan hammom, birinchi va ikkinchi chortoq oralig'idagi XV-XVIII asrlarga oid imoratlar buzilib, tuproq ostida qoldi. Bizning davrimizda ular haqida malumot ham yo'q edi. Mana shu majmuadagi qator maqbaralar qulab tushdi. Shu jumladan Ahmad Xo'ja, Qutlug' Og'a, Amir Xusayn, Usta Ali qurgan maqbarasiga shimol tomondan tutashgan nomalum maqbaralarning gumbaz va orqa tomonlari qulab tushib, faqatgina old devorlari qolgan edi. Maskur ziyoratgohning g'arbiy yo'llaridagi IX–XII asrga oid, jami 10 dan ortiq maqbaralar nomnishonsiz yo'q bo'lib ketdi. Ularning poydevorlarigina bizgacha yetib keldi, xolos. Bu yerdagi qandillar, shamdonlar, eshik va boshqa jihozlar olib ketildi, o'g'irlandi. Binolarning tepa qismi, ichki va sirtqi pardozlarning katta qismi nurab qolgan edi. Shahar qal'a devorlari va darvozalari butunlay buzilib ketdi. Oxanin darvozasi yaqinida joylashgan jahonga mashhur Bibixonim memoriy majmuasi ayanchli axvolga tushdi, bu ansanblning birinchi imorati – Bibixonim madrasasi o'rniga trikotaj fabrikasi qurilgan edi, Madrasaning ajralmas qismi xisoblangan Bibixonim (Saroymulkxonim) maqbarasi vayrona axvolda fabrika xovlisida qolib ketgan edi. Uning ro'parasidagi Bibixonim masjidi nomi bilan ma'lum bo'lgan Amir Temur jome masjidining bir qismi bozor, yana bir qismi avtomobil yo'li va to'xtash joyi, kichik savdo do'konlari bilan egallab olingan edi. Masjidning 480 ta tosh ustunlari va boshqa tosh elementlari to'rt tarafga sochilib, tarqalib ketdi. Bino qarovsiz axvolda bo'lganligi tufayli uning atrofida qadimiy koshinlari sochilib yotardi. Xar bir xorijiy sayyox bu koshinlardan

hoxlaganicha terib olishi mumkin edi. O'zbekiston mustaqillikga erishilmaganida edi, extimolki, bu obidadan bir tup g'isht va tuproq uyumi qolgan bo'lardi, xolos.

Registon memoriy majmuasining old tomonidagi Ko'kaldosh masjidi va Abu Said madrasalari XIX asrda buzilib ketdi. Rus ma'murlari Registon maydonida Siyob bozoriga boradigan ko'chani kengaytirish baxonasida Shayboniyxon qurdirgan 2 ta madrasani buzib tashlashdi. Ularning biri, o'rta asr mualliflari bergan malumotiga qaraganda, O'rta Osiyoda eng yirik madrasa bo'lgan. Ulug'bek madrasasining ikkinchi qavati olib tashlandi. XX asrga kelib esa Registon atrofidagi do'konlar, rastalar, Mag'oq masjidi, qator madrasa, masjid va karvon saroylar buzilib ketdi.

Amir Temur majmuasidagi Muhammad Sulton madrasasi va xonaqohi xam XIX-asrda buzilib ketgan. Undan butun qolgan 2 minoraning biri XIX-asr oxirida, ikkinchisi esa XX-asr boshlarida qulab tushgan. Samarqanddagi arxeologik, me'morlik, amaliy san'at va boshqa madaniyat yodgorliklariga XIX-asrda bo'lgan qiziqish asosan kolleksionerlik xarakterga ega edi. Muhim tarixiy xujjatlarni o'rganish, ilmiy taxrir etish ham rus olimlari, tarixchilari ixtiyoriga berilgan edi. Bizning tarixni ularning nuqtai nazari bilan yozish g'oyasi oldinga surilgan edi. Rus olimlaridan N.N.Veselovskiy, V.V. Bartold, V.L.Vyatkinlar esa o'rta asrlar qo'lyozmalar yig'ib, ularni ilmiy tahlil qilib, bir qator ishlarni Amalga oshirishdi. Jumladan, 1908 yilda Vyatkin V.L. vaqt xujjatlarini o'rganib chiqib, «Arxeologiya shinavandalari» to'garagini tashkil etib, arxeologiya va me'moriy yodgorliklarni o'rganish va ta'mirlash masalalarini ko'tardi. Biroq bu ish xavaskorlik darajasida qolib ketdi.

Sho'rolar davrining dastlabki yillarida iqtisodiy tanglik tufayli bir qator me'moriy obidalar buzilib ketdi. Keyinchalik 1930-yillarga kelib, ba'zi bir yodgorliklar tamirlandi. Jumladan, 1932-yilda Chorsu savdo gumbazi devorlari yarim belidan yuqorisigacha ochilib, qaytadan tiklandi. Biroq uning shamollatish yo'llari – xataba tizimi buzib, yopib tashlanganligi tufayli bu imorat zax tortib tez -tez tamirlab bo'lib turibdi. O'sha yili muhandis M.F.Mauer boshchiligida va xalq ustalari ishtirokida Ulug'bek madrasasining o'z o'qidan ancha oqqan shimoli –sharqiy minorasi to'g'irlab qo'yildi. Keyinchalik N.P.Zapinkin xalq ustalarini yig'in studiya tashkil etdi. Sherdor madrasasining bosh ravog'i va kinosidagi sher, oftob, oxu tasvirlari tamirlandi, Ulug'bek madrsasi bosh ravog'i, Amir Temur maqbarasining gumbazi xam tamirlandi. 1960-yillarda tamirlash ishlari biroz jadallashadi. 1965-yilda professor E.M.Gendel raxbarligida Ulugbek madrasasining o'z o'qidan deyarli 1,8 m.ga oqqan janubi sharqiy minorasi va Amir Temur jome (Bibixonim) masjidining shimoli-g'arbiy minorasi ko'tarib, osti mustaxkamlanib to'g'irlab qo'yildi. Registon me'moriy majmuasida ta'mir ishlari olib borildi. Tillakori madrasasi peshtoqi qayta tiklandi, uning tarkibidagi masjid maqsurasining ustki gumbazi tiklanib, ichki gumbazining naqshlari tamirlandi, maydon saxni XV-XVII asr satxiga tushirildi. Ammo Ulug'bek madrasasining 2-qavati vayrona xolicha qolib ketdi. Tillakori madrasasi noto'gri tamirlangani tufayli uning g'arbiy devori cho'kaboshladi. Tamirlash ishlari faqatgina markaziy yodgorliklarda olib borilishi munosabati bilan Oqsaroy, Ishratxona,

Saroyulkxonim maqbaralari buzilib, yomon xolatga tushdi. Xo'ja Axror majmuasi, Namozgoh masjidida omborxonaga aylantirilganligi uchun yarim vayrona xolatiga keldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abu Toxirxo'ja. Samariya / Meros- T.: Kamalak, 1991. -S. 5-81
2. Axmedov Ashraf. Amir Temur maqbarasi / Xilqona haqida yangi malumotlar // Zarafshon, 23 sentabr, 1995
3. Axmedov M.Q. o'rta osiyo me'morchiligi tarixi. –T.: (Uzbekiston), 1995. – 215 c.
4. Bartold B.B. O pagrebeni Timura / soch. I. P, CH, 2, - M.: (Nauka). 1964. S 423- 154.
5. Narshaxiy.Tarixi Buxoro/Meros.-T.: «Kamalak»,1991,-c82-174
6. Suyunov, J., & Bobomurodova, M. (2021). Purpose of floating structures for all types of water supplying structures. European Scholar Journal, 2(12), 126-129.
7. Qayumov, X. I. (2021). Dostonov AS Fozilova ZQ Samarqand shahri turar joylarini shahar strukturasiidagi o'rni. Me'morchilik va qurilish muammolari ilmiy-texnik jurnal. Samarqand, (4).